CONTENT ESSENCE OF MODERN TRENDS IN PRESCHOOL EDUCATION

Yusupova Nilufar Tokhirjon qizi

Turan International University Humanities

4th year student of the Faculty of Sciences and Pedagogy.

ANNOTATION

This article discusses the importance of preschool education today, modern directions of educating children, methods, tasks, and work that needs to be done.

Keywords:

Preschool education, education, method, child, mechanism, result, trend, principles and areas of development.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность дошкольного образования сегодня, современные направления, методы, задачи и работа, которую необходимо проделать в процессе обучения детей.

Ключевые слова:

Дошкольное образование, образование, метод, ребенок, механизм, результат, тенденция, принципы и области развития.

Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlarida ta‘lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning baravarida inson paydo bo‘lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o‘qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undamoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o'zaro bog‘lagan va harakatdagi tizimini yaratish e'tiborga molikdir. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi bo‘g‘ini sifatida e'tirof etilib, uning 1.1 -moddasida maktabgacha ta'lim bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, axloqiy, estetik, xullas, har jihatdan uning keyingi turida, ya'ni maktabda o‘qishga tayyorlashi lozimligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida – bola o’z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o’zaro muomila tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola o’z ehtiyojlari qobiliyatlari va imkoniyatlariga

muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi; tashkilot ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv –hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi.Hozirgi vaqtda bolalar bog'chasiga bolalar bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagog zarur bo'ladi.U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, oxirgi paytda maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda, chunki ta'lim tashkilotining ishiga innovatsiyalarning joriy etilishi – maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini tashkillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir.

Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik faoliyatga yangiliklar kiritish, samaradorligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni va texnologiyasini o'zgartirishlarni tushunish lozim. Shunday qilib, innovatsiyalar jarayoni yangilik mazmuni va tashkil etilishining shakllanishidan va rivojlanishidan iborat.

Yangiliklar tashuvchisi – pedagog – innovatsiyalar jarayoni tuzilishining elementi sifatida yangilikni idrok etish, o'zlashtirish va baholash, maqsad qo'yish va maqsadga erishish birligi jihatidan tavsiflanadi. Motivatsiya (istayman), nazariy (qila olaman), texnologik (qilaman) va natija (olaman) intilishi va tayyorligining jamuljamligi maktabgacha ta'lim pedagoglarining innovatsiya uquvligi tizimini tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim - tarbiya berishda xorij tajribalariga tayanadigan bo'lsak hammaga ma'lumki, inson hayotining dastlabki yetti yilni o'z ichiga qamrab oluvchi maktabgacha ta'lim yosh davri o'z ahamiyatiga ko'ra noyob holat hisoblanadi. Aynan shu yillarda bolada o'z asosiy insoniy qobiliyatlarining shakllanishi yuz beradi, uning shaxsi rivojining asoslari qo'yiladi. Insonning kelajagi, uning xulq-atvori, qobihyati, dunyoqarashi bolalik qanday bo'lganhgiga, ta'lim qanday bo'lganligiga ko'p jihatdan bogliqdir. Bulaming hammasi bolalikning almashib bo'lmas ahamiyatini, uning barkamol shaxs sifatida shakllanishidagi alohida rolini belgilaydi va maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab ta'lim sifatini ta'minlash muammosini davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimida boshqarish, maqsadlar, mazmun, vositalar va usullar sifatga, ya'ni sifat va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgandagina "barkamol shaxs" asoslarini shakllantirishni ta'minlovchi ta'lim darajasiga erishish mumkin bo'ladi. Modomiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish - ta'hm sifatini boshqarish yaxlit tizimining o'zini-o'zi ta'minlovchi birhgi bo'lib xizmat qilar ekan, bunda uni bu jarayonning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish kerak. Samaradorlik xar qanday faoliyatda eng kam kuch sarflash vn moddiy jihatdan

kam harajat qilgan xolda, qisqa vaqt ichidn ko'zlangan maqsadga to'la erishishdir. Garchi buni faoliyatga tatbiq etadigan bo'lsak, unda qulaylik tomoni ham hisobga olinadi. Lekin uning amalda hal qilinishi ma'lum shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limdagi va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak. Har qanday boshqa ilmiy ijtimoiy nazariya kabi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirish nazariyasi ham turli fanlar, avalo falsafa fani tomonidan ishlab chiqilgan umumuslubiy yondashuvlardan, qoidalardan, prinsiplardan kelib chiqadi.

- Ta'lim tizimlarida faoliyatning o'ziga xosligini ajratish, u shundan iboratki, bunda uning qonuniyatlari kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati nuqtai nazaridan yanada to'laroq ochiladi hamda pedagog va bolaning o'zaro muloqoti, hamkorligi bilan bog'liq subyekt - munosabatlarida aniqlashtiriladi.

- Ta'lim jarayonida bolani riojlantirishning potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan psixik rivojlanish bo'yicha o'qitishning yetakchi roli haqidagi qoida va unga asoslangan rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi.

- Maktabgacha ta'hm yoshidagi bolalikning o'z qiymati, uning insonni yanada rivojlantirishning ilk asoslari shakllanishining noyob davri sifatidagi ko'chmas ahamiyati, uni ro'yobga chiqarish har bir yoshdagi bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga javob beruvchi shart-sharoitlami yaratish zarurhgini va bolalarning o'ziga xosligini hisobga olishni taqozoetadi.

- O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan modelida o'zini aniq mujassam ifodasini topgan ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta’lim jarayoni sifatini takomillashtirish muammosiga tatbiqan bu g'oya quyidagi qoidalar orqali taqdim qilinishi mumkin:

- bola shaxsini rivojlantirish ta'lim jarayoni sifatining va uning natyalarming bosh mezoni bo'Ushi kerak;

- sifatga yo'naltirilgan ta'lim bolaning o'ziga xosligini qo'llab-quvatlash asosiga qurilishi kerak;

- ta'lim mazmunini ishlab chiqishda umuminsoniy qadriyatlar hamda jahon va mamlakat madaniyati qadriyatlarining ustuvorligi e'tirof etilishi;

- faoliyat mazmunini, usullarini tanlashda bola ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish; - bolalar bilan pedagogik ishni tashkil qilishda pedagogga mustaqillik berish, bir vaqtning o'zida sifatli ta'lim uchun uning mas'uliyatini oshirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ayrim ijtimoiylashuv xususiyatlarini rivojlantirishda bu faoliyatning mazmuni va uning qay darajada ekanligi katta ahamiyatga ega.Chunki to’g’ri tashkil etilgan faoliyat davomida atrofdagi kishilar bilan munosabatda bolaning aqliy,jismoniy rivojlanishi takomillashib boradi.Shuning uchun ham bolalar ijtimoiy faolligini bilish,bolada foydali odatlarni shakillantirish ijobiy xarakter odatlarini belgilarini rivojlantirishda ota-onalar va muassasa tarbiyachilarining o’rni beqiyosdir.

References

1. Sh. Mirziyoyev. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan. –T.:“ Uzbekistan”, 2016. - 56 p.

2. Sh. Mirziyoyev. Together we will build our great future with our brave and noble people.– T.:“ Uzbekistan”, 2016. - 488 p.

3. Uralovich M.S.(2022,April). Mutual understanding as a phenomenon of interpersonal relations. In E Conference Zone (pp. 41-43). 4. Makhmudov Salimjon Uralovich RESPONSIBILITY OF STUDENTS AND TEACHERS IN HIGHER EDUCATION: SOME PROBLEMS AND DEBATE. Journal of Pedagogy and psychology in modern education , Vol. 4 No.2 (2024).

5. Makhmudov Salim Uralovich (2024). Possibilities Of Using Electronic Literature In The Educational Process Progress Annals. Journal of Progressive Research Volume 2, Issue 2, February 2024.

6. Makhmudov Salimjon Uralovich (2024). PSYCHOLOGY OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN. "CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH" Issue.